



UNIVERSITÄT
HOHENHEIM



**EKOLOGIYA,
ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO,
YECHIMLAR VA NATIJALAR
MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-TEXNIK ANJUMAN**

TO'PLAMI

QARSHI 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“EKOLOGIYA, ATROF MUHITNI ASRASH VA
YASHIL MAKON: MUAMMO, YECHIMLAR VA
NATIJALAR”

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
TO‘PLAMI

2025-yil 30-31 may

Qarshi-2025

6. Wang Y., Li Z., Tang Z., Zeng G. A GIS-based spatial multi-criteria approach for flood risk assessment in the Dongting Lake Region, Hunan, Central China / *Water Resource Management* // 2011y. 25 (13), 3465-3484
7. Rafa, N.; Nuzhat, S.; Uddin, S.M.N.; Gupta, M.; Rakshit, R. Ecotourism as a Forest Conservation Tool: An NDVI Analysis of the Sitakunda Botanical Garden and Ecopark in Chattogram, Bangladesh. *Sustainability* 2021. **13**.12190. <https://doi.org/10.3390/su132112190>.
8. Singgalen, Yerik & Manongga, Danny. (2022). Monitoring of mangrove ecotourism area using NDVI, NDWI, and CMRI in dodola island, morotai island regency, indonesia. *Jurnal Ilmu dan Teknologi Kelautan Tropis*. 14. 95-108. 10.29244/jitkt.v14i1.37605.

O‘ZBOSHMCHALIK BILAN EGALLAB OLINGAN YER UCHASTKASI VA UNGA QURIB OLINGAN BINOLARGA KADASTR HUJJATLARI BERISH (NISHON TUMANI MISOLIDA)

Baratova M.Z. - “Yerdan foydalanish, geodeziya va geoinformatika” kafedrası o‘qituvchisi

Qarshi davlat texnika universiteti

Yuldosheva Y.Sh. - Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

***Annotasiya:** Ushbu maqola butun jahon yer kuniga bag‘ishlangan bo‘lib, Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-sonli qonuni ijrosi yuzasidan mahallalar kesimida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ularning natijalari haqida yoritilgan. Mahallalarda sayyor qabullar tashkil etilganli, bu qonunning maqsadi va vazifalari haqida, qolaversa, sayyor qabulda muhokama qilingan mavzular haqida ma‘lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** O‘RQ-937-sonli qonun, rezident bo‘lgan yuridik shaxslar, sayyor qabul, ko‘chmas mulk, huquqlarni e‘tirof etish, auksion.*

***Аннотация:** Статья посвящена Всемирному дню Земли и освещает меры, принимаемые махаллями Нишонского района Кашкадарьинской области по реализации Закона Республики Узбекистан от 5 августа 2024 года №О‘RQ-937, и их результаты. В жилых кварталах были организованы передвижные приемные, на которых предоставлялась информация о целях и задачах данного закона, а также о темах, обсуждаемых на передвижных приемных.*

***Ключевые слова:** Закон № О‘RQ-937, юридические лица-резиденты, бывший глава, передвижная приемная, недвижимое имущество, признание прав, аукцион.*

***Abstract:** This article is dedicated to World Earth Day and covers the measures taken by the mahallas in the Nishon district of the Kashkadarya region to implement the Law of the Republic of Uzbekistan No. O‘RQ-937 dated August 5, 2024 and their results. The organization of mobile receptions in the mahallas provides information about the purpose and objectives of this law, as well as the topics discussed at the mobile reception.*

Keywords: *Law No. O‘RQ-937, resident legal entities, former head of the, mobile reception, real estate, recognition of rights, auction..*

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-sonli qonuni "O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida" bo‘lib, u yer bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, Nishon tumanida ham dolzarb masalalardan biridir. Nishon tumanida qonunning ijrosini ta‘minlash maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada ushbu chora-tadbirlarning mazmuni, amalga oshirilishi va natijalari tahlil qilinadi.

Kadastr agentligi tomonidan qonun ijrosini ta‘minlash maqsadida hududlarda xatlovlar o‘tkazish reja-grafigi ishlab chiqilgan. Bunday xatlovlar noqonuniy egallangan yer uchastkalarini aniqlash va ularni qonuniylashtirish yoki qaytarish bo‘yicha muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 9-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 21-iyunda ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.08.2024 yildagi O‘RQ-937-son. Kuchga kirish sanasi 08.11.2024. 35 modda 6 bobdan iborat.

TADVIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI: O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-sonli qonuni "O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida"gi qonun

1) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan 2018-yil 1-mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

2) fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident bo‘lgan yuridik shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilgan yer uchastkasi maydonidan 2018-yil 1-mayga qadar ortiqcha egallagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

3) O‘zboshimchalik bilan qurilgan yakka tartibdagi uy-joylarga bo‘lgan mulk huquqini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko‘chmas mulkka nisbatan huquqni e‘tirof etish ishlarini tashkil etish bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan e‘tirof etish mumkin deb topilganligi hollariga yoki uni e‘tirof etish rad etilganligi yoxud arizalarning ko‘rib chiqilishi bir martalik umumdavlat aksiyasining muddati o‘tganligi sababli yakuniga yetmaganligi hollariga;

4) 2021-yil 8-iyunga qadar tuman (shahar) hokimining qaroriga ko‘ra qonunchilik hujjatlariga muvofiq fuqarolarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga yoki rezident bo‘lgan yuridik shaxslarga ajratilgan, tasdiqlash masalasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi yoki tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilmagan yer uchastkasiga (bundan shunday yer

uchastkasida ikki yil ichida binolar va inshootlar qurilmagan yoki ularning qurilishi boshlanmagan yoxud yer uchastkasidan maqsadsiz foydalanilgan hollar mustasno);

5) fuqarolarning bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylariga hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

6) 2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining yashash uchun mo‘ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismlari joylashgan yer uchastkasiga;

7) xususiylashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasiga;

8) fuqarolarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning va rezident bo‘lgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq mulk (egalik qilish) huquqi e’tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasiga nisbatan huquqlarni e’tirof etish asoslari va tartibini belgilaydi.[1]

Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasining Nishon tumani filialining oldingi rahbari-Holatov Bobir Sevarqul og‘li. 18-fevral 2025-yilda Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i G‘ayrat Hamroyev boshchiligida tashkiliy yig‘ilish o‘tkazildi. Yig‘ilishda Kadastr agentligi direktori buyrug‘iga ko‘ra, Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasining Nishon tumani filiali rahbari lavozimiga Chorshanbiyev Islomjon Asqarali o‘g‘li tayinlandi va shu kundan boshlab I. Chorshanbiyev o‘z faoliyatini boshladi.[3]

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida 2024-2025 yillarda bosqichma-bosqich xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha mahalla kesimida reja-grafigi (1-jadval).

T/R	Mahalla fuqarolar yig‘ini	Boshlash sanasi
1	Jalajin MFY	08.11.2024
2	Paxtazor MFY	25.12.2024
3	Paxtaobod MFY	19.02.2025
4	Baynalminal MFY	14.04.2025
5	Balxiyak MFY	02.05.2025
6	Gulzor MFY	19.06.2025
7	Yoshlar diyori MFY	31.07.2025
8	Janub mash‘ali MFY	11.09.2025
9	Ibn-Sino MFY	15.10.2025
1	Istiqbol MFY	04.11.2025

1-jadval.

2026-2028-yillarda Nishon tumanida qolgan mahallalarida ham xatlov ishlari olib borilishi rejalashtirilgan. Nishon tumani hududida jami 36 ta mahalla mavjud bo‘lib, “Oydin” MFY, “Nurchi” MFY, “Ko‘ksoy” MFY, “Do‘stlik” MFY, “Tinchlik” MFY, “Obod” MFY, “Obi hayot” MFY, “Kimyogar” MFY, “Samarkand” MFY, “Yuksalish” MFY, “Kaptarli” MFY, “Qirqquloq” MFY, “Shirinobod” MFY, “A. Qodiriy” MFYlar shular jumlasidandir.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI: Aholining Kadastr sohasidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish maqsadida tumanning qator hududlarida sayyor qabullar o‘tkazildi.

➤ Nishon tumani, 22-noyabr. 12-00. “Jalajin” MFY binosida

- Nishon tumani, 25-yanvar. 15-00. "Gulzor" MFY binosida
- Nishon tumani, 29-mart. 14-00. "Yoshlar diyori" MFY binosida

Filial mas'ullari tomonidan mahallalarda tashkil etilgan qabullarda kadastr hujjatini tayyorlash, ko'chmas mulkka oid huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha va sohaga doir boshqa murojaatlarga e'tibor qaratildi.

Murojaatlar quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqildi:

- ★ Kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish
- ★ Yer maydonlarini zaxiraga qaytarish
- ★ Ko'chmas mulkka egalik huquqi olish.

Shuningdek, yig'ilgan fuqarolarga 937-sonli Qonunning mazmun-mohiyati va uning amaliy ahamiyati haqida batafsil tushuntirish berildi. Sayyor qabul davomida har bir murojaat alohida ko'rib chiqilib, qonuniy yechim topish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi.[5]

Sayyor qabulda yig'ilgan fuqorolar tomonida o'zini qiziqtirgan savvollar berildi va mas'ul xodimlar tomonidan bu savollarga javob berildi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

Huquqlarni e'tirof etish shartlari qanday?

Qonunda huquqlarni e'tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan bo'lib, Ko'chmas mulkni qonuniylashtirish uchun ular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ❖ yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo'lishi;
- ❖ yer uchastkasidan foydalanishda nizo mavjud emasligi;
- ❖ yer va mol-mulk solig'i bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi;
- ❖ muhofaza zonalarida, sug'oriladigan yerda joylashmaganligi;
- ❖ bosh reja talablariga zid emasligi (mavjud bo'lsa);
- ❖ har bir kategoriyaga xos boshqa shartlar (investisiya majburiyati bajarilganligi, shirkat a'zosi hisoblanishi va boshqalar).

Aholi bilan muloqot qanday naf beradi?

1. Mulk huquqlari bo'yicha tushunmovchiliklar bartaraf etiladi fuqarolar o'z huquqlarini aniq bilib oladi.
2. Korrupsiya xavfi kamayadi – barcha jarayonlar ochiq va adolatli o'tadi.
3. Huquqiy savodxonlik oshadi – yer va mulk hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha aholining xabardorligi kuchayadi.
4. Ishonch ortadi – fuqarolar davlat xizmatlariga yanada ishonch bilan murojaat qiladi.

Xususiylashtirilgan yer uchastkalari mulkdorlarining huquqlari nimalardan iborat?

Xususiylashtirilgan yer uchastkalarining mulkdorlari quyidagi huquqlarga ega:

- xususiylashtirilgan yer uchastkasiga yuridik va jismoniy shaxslarning, davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmaganda, o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatlarini ko'zlab erkin egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shu jumladan undan garov

predmeti sifatida foydalanish, yuridik shaxsning ustav kapitaliga (ustav fondiga) hissa sifatida kiritish, ijaraga berish

- xususiylashtirilgan yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquqining har qanday buzilishlari bartaraf etilishini talab qilish

- xususiylashtirilgan yer uchastkasida mustaqil ravishda xo‘jalik yuritish

- uy-joy, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy imoratlar va inshootlarni hamda boshqa imoratlar va inshootlarni qurish, ularni qayta qurish va buzishni amalga oshirish.

Huquqlarni e’tirof etish shartlari qanday?

Qonunda huquqlarni e’tirof etishning asosiy shartlari ham aniq belgilangan bo‘lib, Ko‘chmas mulkni qonuniylashtirish uchun ular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo‘lishi;

- yer uchastkasidan foydalanishda nizo mavjud emasligi;

- yer va mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi;

- muhofaza zonalarida, sug‘oriladigan yerda joylashmaganligi;

- bosh reja talablariga zid emasligi (mavjud bo‘lsa);

- har bir kategoriyaga xos boshqa shartlar (investisiya majburiyati bajarilganligi, shirkat a‘zosi hisoblanishi va boshqalar).

Ko‘chmas mulkka egalik huquqi qanday foyda keltiradi?

Mulk huquqini himoya qiladi – Rasmiy ro‘yxatga olingan yer yoki uy kelajakda har qanday huquqiy kelishmovchiliklardan himoyalangan bo‘ladi.

Mulkni sotish va merosga o‘tkazish osonlashadi – Kadastrdan o‘tgan mulk qonuniy hujjatlarga ega bo‘lgani uchun uni sotish, hadya qilish yoki merosga qoldirish jarayonlari tez va soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Uy-joy ipotekasi va boshqa davlat yordami dasturlaridan foydalanish uchun mulkning kadastr hujjatlari doim kerak bo‘ladi.

Ko‘chma savdo do‘konlari uchun kadastr pasporti talab etiladimi?

Yo‘q, talab etilmaydi. Qonunchilikka ko‘ra, mol-mulk fuqarolik huquqlari obykti sifatida ko‘chmas mulkka va ko‘char mulkka bo‘linadi. Ko‘chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko‘char mulk hisoblanadi. Ko‘char mulkka kadastr pasporti berilmaydi va unga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talab etilmaydi.

“Kadastr aholi manfaatlari yo‘lida” tamoyili asosida Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Nishon tumani filialida muntazam ravishda o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Nishon tumani filiali xodimlari tomonidan “Balxiyak” “Jalajin” “Oq oltin” Janub mash’ali” “Gulzor” “Yangiobod”, “Navruz” va “Katta anhor” mahallalarida aholi va tadbirkorlarning Kadastr bilan bog‘liq murojaatlari qonuniy tartibda o‘rganib chiqilib, vakolat doirasidagi murojaatlar ijobiy hal etildi.

Shu jumladan, Nishon tumanida noqonuniy qurilmalar bartaraf etildi. Kadastr agentligining Nishon tumani bo‘limi tomonidan "Samarqand" MFY hududida nazorat monitoringi o‘tkazildi. Tadbir davomida fuqaro 0,02 ga yer maydonini huquqiy hujjatlarsiz noqonuniy egallab olib, uy-joy qilish maqsadida 39 kv metr yerga noqonuniy qurilish qilgani holati aniqlandi. Fuqaroga mazkur

yer maydonini o'zboshimchalik bilan egallab olishning huquqiy oqibatlarini Kadastr inspektorlari tomonidan tushuntirildi. Qonunbuzarlikning huquqiy oqibatini to'g'ri anglanishi natijasida holat ixtiyoriy bartaraf etildi.[4]

Nishon tumanidagi Qirqquloch mahallasida fuqaro tomonidan 0,01 gektar yer maydonini o'zboshimchalik bilan egallab olib 40,0 kv.m o'lchamda noqonuniy ravishda beton poydevor qurganligi holati anqilandi. Qonunbuzarlikning huquqiy oqibatini to'g'ri tushungan fuqaro noqonuniy qurilmani ixtiyoriy bartaraf etdi.

Yana bir holat Qirqquloch mahallasida yer nazorat tadbiri o'tkazilganida fuqaro tomonidan hech qanday huquqiy hujjatsiz yer maydoni o'zboshimchalik bilan egallab olingani va noqonuniy tarzda qurilish ishlari amalga oshirilayotgani holati aniqlandi. Fuqaroga sodir etilgan qonun buzilish holatini ixtiyoriy bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Fuqorolarga O'zbekiston Respublikasining 05.08.2024-yildagi O'RQ-937-sonli Qonuniga asosan hujjatsiz uy-joylarga egalik huquqini berish 2018-yil 1-may kunigacha yakka tartibdagi uy-joy qurib o'zboshimchalik bilan egallangan yer hamda undagi bino va inshootlar nisbatan ko'rib chiqilishi, O'ziga huquqiy jihatdan tegishli bo'lmagan yer uchastkalarida noqonuniy qurilishlarni amalga oshirilishi, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab, noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarliklar belgilanganligi ta'kidlab o'tildi.

Xulosa va takliflar: O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi O'RQ-937-sonli qonuni yer bilan bog'liq huquqiy masalalarni tartibga solish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Nishon tumanida ushbu qonunni amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator tadbirlar amalga oshirildi:

Kadastr agentligi tomonidan xatlovlar tashkil etildi, natijada noqonuniy egallangan yerlar va ularning huquqiy maqomi aniqlandi.

Sayyor qabullar o'tkazildi, aholining huquqiy savodxonligi oshirildi va kadastr hujjatlariga oid muammolar yechildi.

Noqonuniy qurilmalar bartaraf etildi, fuqarolarga yer uchastkalarini qonuniy rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi.

Yer huquqlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi, natijada fuqarolarning o'z huquqlarini bilish darajasi oshdi va yer bilan bog'liq nizolar kamaydi. Umuman olganda, Nishon tumanida qonunning ijrosi fuqarolarga yer va mulk huquqlarini qonuniylashtirishda katta yordam berdi, korrupsiya xavfini kamaytirdi va yer munosabatlarida shaffoflikni ta'minladi. Mrni takliflarim shundan iboratki:

Fuqarolarga o'z yer uchastkalarini qonuniylashtirish tartibi haqida keng tushuntirish berish zarur.

Maqolada keltirilganidek, Nishon tumanida noqonuniy egallangan yer maydonlari bo'yicha fuqarolar xabardor emasligi sababli tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda. Sayyor qabullarda fuqarolar ushbu qonunning talablari haqida ma'lumot so'rayapti. Shu sababli, tushuntirish ishlarini kengaytirish lozim.

Xatlov jarayonlarini jadallashtirish uchun qo'shimcha kadastr xodimlari jalb qilish kerak.

Nishon tumanida 2024–2028 yillarda bosqichma-bosqich xatlov o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Tumanda 36 ta mahalla mavjud, lekin hozircha faqat ayrim mahallalarda xatlov boshlangan. Bu esa jarayonning uzoq davom etishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, qo‘shimcha mutaxassislarni jalb qilish lozim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonuni O‘RQ-937-sonli qonuni "O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida" gi qonun.
2. Kadastr agentligi https://t.me/uz_kadastr/7628
3. Nishon tuman hokimligi <https://t.me/Nishonhokimligi/36787?single>
4. Qashqadaryo kadastr pres <https://t.me/Qashkadastrpress/14831>
5. Nishon 24 rasmiy kanali
https://t.me/Nishon_Nishonliklar_yangiliklari/4235

TA’LIM OLUVCHI YOSHLARDA MEDIANING TA’SIRI VA UNING TAVSIFIY BELGILARI

Nekboyev X.X. - Qarshi davlat texnika universiteti, p.f.f.d., (PhD) dotsent,

Annotatsiya. So‘nggi yillarda matbuot, kinematograf, televideniye, video, internet kabi media materiallar integratsiyalashuvining aniq tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur vaziyat ham an‘anaviy, ham yangi media san‘at ko‘rinishlari materiali asosida mamlakat media pedagogikasi tomonidan to‘plangan tajribani o‘z ichiga olgan holda media ta’limining yagona konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bu bilan bog‘liq ravishda, media ta’limning yoshga oid xususiyatlarini ko‘rib chiqishdan oldin, matbuot, video, televideniye, internet materiallarida zamonaviy yosh avlodning mediadagi afzalliklarini ko‘rib chiqishni zarur deb hisoblaymiz.

Kalit so‘zlar: Internet, yoshlar, media, matbuot, kinematograf, televideniye, reklama.

Abstract. In recent years, a clear trend of integration of media materials such as the press, cinema, television, video, the Internet has been observed. This situation creates the need to develop a single concept of media education, incorporating the experience accumulated by the country's media pedagogy on the basis of the material of both traditional and new media art forms. In this regard, before considering the age-related characteristics of media education, we consider it necessary to consider the media preferences of the modern younger generation in the materials of the press, video, television, the Internet

Keywords: Internet, youth, media, press, cinema, television, advertising.

Hozirgi paytda ta’lim oluvchi yoshlar o‘rtasida televideniye, kinematograf, video kabi ekran medialari juda keng tarqalgan. Bolaning media olam bilan tanishuvi aynan ekrandan boshlanadi. Bolalar erta yoshdan boshlab ekranda ko‘rganlarini yaxshi eslab qoladilar, faol (o‘z afzalliklari va yaxshi ko‘rgan qahramonlari bo‘lgan) teletomoshabinlarga aylanadi, maktabga borish davriga kelib, odatda, kompyuter savodxonligi haqida qisman xabardor bo‘ladilar.